



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI *2024-yil yanvar-mart*



SAMARQAND VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2024-yil 1-aprel holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra **4 227,3** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **18,8** ming kishiga yoki **0,4** foizga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1 549,0** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,6** %), qishloq aholisi soni **2 678,3** ming kishi (**63,4** %)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

4 227,3 ming kishi

Tabiiy o'sish

+19,6 ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar




36,6 %

Qishloq



63,4 %

Aholining tabiiy harakati, ming kishi




Samarqand viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2024-yil yanvar-mart



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2024-yil 1-aprel holatiga



2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisining mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar soni **33,8 %**, mehnatga layoqatli yoshdagilari **55,2 %** va mehnatga layoqatli yoshdan kattalari **11,0 %** hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi


2024-yil 1-yanvar holatiga




2024-yil 1-yanvar holatiga Samarqand viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **270,7 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib **72,2 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **251,4 ming kishini** tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni **81,2 ming kishini** tashkil etgan.

Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

2024-yil 1-yanvar holatiga




2024-yilning 1-yanvar holatiga Samarqand viloyati aholisining kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **74,0** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **71,6** yoshga, ayollar uchun esa **76,3** yoshga teng. Shahar joylari **76,4** yosh, qishloq joylari uchun kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **71,8** yoshni tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi
2024-yil 1-aprel holatiga

Doimiy aholi sonining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi
1-aprel holatiga, ming kishi

	2023-yil	2024-yil	O'sish sur'ati, %
Viloyat bo'yicha	4 137,8	4 227,3	102,2
Samarqand sh.	575,6	587,8	102,1
Kattaqo'rg'on sh.	93,8	95,1	101,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	170,1	174,1	102,4
Bulung'ur	198,5	203,1	102,3
Jomboy	186,0	190,6	102,5
Ishtixon	271,4	277,2	102,1
Kattaqo'rg'on	289,2	295,0	102,0
Qo'shrabot	139,7	142,4	101,9
Narpay	224,1	228,2	101,8
Payariq	268,3	274,6	102,3
Pastdarg'om	376,6	385,0	102,2
Paxtachi	150,4	152,7	101,5
Samarqand	268,6	274,1	102,0
Nurobod	160,0	163,2	102,0
Urgut	548,5	562,0	102,5
Toyloq	217,0	222,2	102,4


Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi
 2024-yil 1-aprel holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Samarqand viloyatida 2024-yil 1-aprel holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **252,1** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **5,4** kishiga ortgan (2023-yilda 1 kv.km.ga **246,7** kishi).

Shahar va tumanlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Kattaqo'rg'on shahrida **9 510,0** kishi, Samarqand shahrida **4 898,3** kishi, Toyloq tumanida **793,6** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Nurobod tumani **33,6** kishi, Qo'shrabot tumani **65,9** kishi, Paxtachi tumani **110,7** kishini tashkil etgan.

Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi
 1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR



Tug'ilganlarning taqsimlanishi

Yanvar

O'g'il bolalar
4 349

Qiz bolalar
4 119



51,4 %

48,6 %

Fevral

O'g'il bolalar
3 910

Qiz bolalar
3 682



51,5 %

48,5 %

Mart

O'g'il bolalar
4 273

Qiz bolalar
3 742



53,3 %

46,7 %



Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti
2024-yil yanvar-mart, kishi




Urgut	25,6 ‰	3 566
Samarqand sh.	20,4 ‰	2 975
Pastdarg'om	21,6 ‰	2 064
Payariq	24,7 ‰	1 684
Kattaqo'rg'on	22,7 ‰	1 660
Ishtixon	23,9 ‰	1 640
Samarqand	22,3 ‰	1 514
Toyloq	24,2 ‰	1 332
Bulung'ur	26,4 ‰	1 327
Jomboy	25,6 ‰	1 208
Narpay	20,6 ‰	1 168
Oqdaryo	24,5 ‰	1 057
Paxtachi	22,1 ‰	838
Qo'shrabot	23,1 ‰	818
Nurobod	19,8 ‰	803
Kattaqo'rg'on sh.	17,8 ‰	421

2024-yil yanvar-mart oylarida **24,1** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **23,0** promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan **1,8** promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilda **24,8** promilleni tashkil etgan).

VAFOT ETGANLAR



Vafot etganlarning taqsimlanishi




Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti 2024-yil yanvar-mart, kishi

Samarqand sh.	737	5,1 ‰
Urgut	575	4,1 ‰
Pastdarg'om	367	3,8 ‰
Payariq	319	4,7 ‰
Kattaqo'rg'on	289	3,9 ‰
Ishtixon	271	3,9 ‰
Samarqand	252	3,7 ‰
Narpay	241	4,3 ‰
Bulung'ur	231	4,6 ‰
Toyloq	230	4,2 ‰
Paxtachi	182	4,8 ‰
Jomboy	172	3,6 ‰
Nurobod	172	4,2 ‰
Oqdaryo	169	3,9 ‰
Qo'shrabot	153	4,3 ‰
Kattaqo'rg'on sh.	103	4,4 ‰

2024-yilning yanvar-mart oylarida **4,5** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,3** promilleni tashkil etgan (2023-yilning yanvar-mart oylarida **4,4** promille bo'lgan).


O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

2024-yil yanvar-mart, kishi




2024-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan o'lim holatining **55,4** foizi – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **7,0** foizi – o'simtalardan, **5,8** foizi – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **4,7** foizi – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **4,1** foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **0,8** foizi – yuqumli va parazitir kasalliklardan, **22,2** foizi boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR




Nikohlarning taqsimlanishi


Yanvar



Fevral




Mart



Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti


2024-yil yanvar-mart, birlik

Urgut	850	6,1 ‰
Pastdarg'om	514	5,4 ‰
Samarqand sh.	504	3,5 ‰
Payariq	402	5,9 ‰
Kattaqo'rg'on	368	5,0 ‰
Ishtixon	360	5,2 ‰
Toyloq	321	5,8 ‰
Narpay	282	5,0 ‰
Bulung'ur	278	5,5 ‰
Jomboy	277	5,9 ‰
Samarqand	261	3,8 ‰
Oqdaryo	201	4,7 ‰
Nurobod	196	4,8 ‰
Paxtachi	166	4,4 ‰
Qo'shrabot	116	3,3 ‰
Kattaqo'rg'on sh.	94	4,0 ‰






2024-yilning yanvar-mart oylarida **5,2** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **4,9** promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilga nisbatan **0,3** promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-mart oylarida **5,2** promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2024-yil yanvar-mart, birlik


Wiloyat	Soni	Koeffitsiyenti
Samarqand sh.	209	1,4 ‰
Pastdarg'om	111	1,2 ‰
Urgut	101	0,7 ‰
Payariq	88	1,3 ‰
Kattaqo'rg'on	79	1,1 ‰
Samarqand	79	1,2 ‰
Oqdaryo	68	1,6 ‰
Ishtixon	66	1,0 ‰
Toyloq	58	1,1 ‰
Bulung'ur	55	1,1 ‰
Narpay	54	1,0 ‰
Paxtachi	49	1,3 ‰
Jomboy	37	0,8 ‰
Kattaqo'rg'on sh.	34	1,4 ‰
Nurobod	24	0,6 ‰
Qo'shrabot	21	0,6 ‰



2024-yil yanvar-mart oylarida **1,1** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilga nisbatan o'zgarmagan (2023-yil yanvar-mart oylarida **1,1** promille bo'lgan).


Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2024-yil yanvar-mart



2024-yil yanvar-mart oylarida viloyatda jami nikohdan ajrashganlarning **48,1** foizi farzandsiz, **26,0** foizi bitta farzand bilan va **25,9** foizi ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti



Viloyat bo'yicha nikohdan ajrashganlarning soni 2024-yilning yanvar-mart oylarida **1 133** kishini, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etgan.

AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)

2024-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar soni 2 924 kishini tashkil etdi.

Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni 3 735 kishini, migratsiya saldosi minus 811 kishini tashkil etdi. (2023-yil yanvar-mart oylarida minus 1 244 kishini tashkil etgan).

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni (yanvar-mart)

(kishi)

	2023-yil			2024-yil		
	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi
Viloyat bo'yicha:	2 549	3 793	-1 244	2 924	3 735	-811
Samarqand sh.	1 035	680	355	1 050	667	383
Kattaqo'rg'on sh.	100	148	-48	111	246	-135
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	152	127	25	161	135	26
Bulung'ur	102	233	-131	177	154	23
Jomboy	110	104	6	107	104	3
Ishtixon	74	264	-190	111	205	-94
Kattaqo'rg'on	133	234	-101	162	292	-130
Qo'shrabot	81	266	-185	100	188	-88
Narpay	58	211	-153	83	238	-155
Payariq	123	311	-188	129	243	-114
Pastdarg'om	148	218	-70	197	204	-7
Paxtachi	76	306	-230	140	380	-240
Samarqand	184	190	-6	177	169	8
Nurobod	38	124	-86	51	167	-116
Urgut	55	302	-247	113	268	-155
Toyloq	80	75	5	55	75	-20

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayiriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 66-235-72-35